



## TIKUVCHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Alimova Xurshida**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0005-8019-6377

[alimovaaxurshida@gmail.com](mailto:alimovaaxurshida@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tikuvchilik korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining o'рни tadqiq etilgan. Tadqiqotning nazariy va amaliy bazasi sifatida O'zbekiston tikuvchilik sanoati bo'yicha statistik ma'lumotlar va tahlillar olindi. Tahlillar natijasida boshqarish faqat ishlab chiqarishni boshqarish vositasi emas, balki bozor talabi, assortiment rejalashtirish, ta'minot zanjiri, boshqaruv hisobi va barqarorlik ko'rsatkichlarini yagona axborot maydonida bog'lovchi boshqaruv mexanizmi ekani asoslandi.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, boshqaruv samaradorligi, boshqaruv hisobi, ta'minot zanjiri, energiya nazorati, prediktiv texnik xizmat, assortiment rejalashtirish, raqamli kuzatuvchanlik.

## ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ НА ШВЕЙНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

**Алимова Хуршида**

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

**Аннотация.** В статье рассматривается роль инновационных механизмов управления в повышении эффективности швейных предприятий Узбекистана. На основе статистических данных обосновано, что управление представляет собой интегрированную систему, объединяющую рыночный спрос, планирование ассортимента, цепочку поставок, управленческий учет и показатели устойчивого развития.

**Ключевые слова:** цифровизация, эффективность управления, управленческий учет, цепочка поставок, контроль энергопотребления, предиктивное техническое обслуживание, планирование ассортимента, цифровая прослеживаемость.

## INNOVATIVE MANAGEMENT IN GARMENT ENTERPRISES AND ITS SPECIFIC FEATURES

**Alimova Khurshida**

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

**Abstract.** This article examines the role of innovative management mechanisms in improving management efficiency in garment enterprises of the Republic of Uzbekistan. The theoretical and practical basis of the study includes statistical data and analytical materials on Uzbekistan's garment industry. The analysis substantiates that management is not only a tool for production control, but also a mechanism that integrates market demand, assortment planning, supply chain management, management accounting, and sustainability indicators within a unified information space.

**Keywords:** digitalization, management efficiency, management accounting, supply chain, energy monitoring, predictive maintenance, assortment planning, digital traceability.

### **Kirish.**

Bugungi kunda tikuvchilik sanoatida boshqaruv samaradorligi endi faqat ishlab chiqarish quvvatini oshirish yoki tannarxni pasaytirish bilan belgilanib qolmasdan balki, bozor talabi o'zgaruvchanligi, assortimentning tez yangilanishi, yetkazib berish zanjirlarining murakkablashuvi, energiya xarajatlarining o'sishi va barqarorlik talablari korxonalarini boshqaruvning innovatsion shakllariga o'tishga majbur qilmoqda. Tikuvchilik sanoatiga oid tadqiqotda ham zamonaviy biznes muhiti kuchli global raqobat, mahsulot hayotiy siklining qisqarishi va talabchan mijozlar bilan tavsiflanishi, bunday sharoitda resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni nazorat qilish strategik boshqaruvning markaziy vazifasiga aylanishi qayd etilgan.

O'zbekiston sharoitida mazkur masalaning dolzarbligi yanada yuqori. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2025 yil 134 trillion so'mga yetgan. Shu davrda kiyim ishlab chiqarish hajmi 1 585,3 mlrd so'mdan 31 906,8 mlrd so'mga ko'tarilgan. 2025 yilda tikuvchilik mahsulotlari jumladan, kiyim ishlab chiqarish ishlab chiqarishning 107,1 foizni tashkil etgan, umumiy sanoat ko'rsatkichi esa 106,5 foiz bo'lgan. Bu tarmoqning o'sishi real ishlab chiqarish kengayishi bilan bog'liq ekanini va boshqaruv tizimlari ham mos ravishda murakkablashayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, raqamlashtirishni alohida texnik loyiha sifatida emas, balki korxonaning barcha oqimlarini boshqaruvchi integrallashgan platforma sifatida ko'rish zarur. Mazkur maqolaning maqsadi tikuvchilik korxonalarida innovatsion boshqaruv usullari orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini ochib berish, xorijiy va mahalliy manbalar asosida amaliy yo'nalishlarni tizimlashtirish hamda integrallashgan boshqaruv modelini taklif etishdan iborat (Hakimov, 2016).

### **Adabiyotlar sharhi.**

Yengil sanoat, xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlarining rivojlanishi, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda marketing va logistika yondashuvlarini takomillashtirish masalalari ilmiy, iqtisodiy taqqiqotlar o'rganildi. Ushbu o'rganilgan tadqiqotlar yengil sanoat korxonalarining bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Hakimov (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omillari chuqur tahlil qilingan. Muallif ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini yaxshilash va eksport salohiyatini kengaytirish kabi omillarni asosiy determinantlar sifatida ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Xolmatov (2023) va Shukurova (2024) ilmiy maqolalarida tikuv sanoatida innovatsion yondashuvlar, eksport imkoniyatlari va raqobat ustunliklarini shakllantirish masalalari zamonaviy nuqtayi nazardan yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlar ham ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. To'qimachilik sanoatida ta'minot zanjiri boshqaruvi strategiyalarini baholash va ustuvorlashtirish masalalari o'rganilgan bo'lib, unda logistika samaradorligini oshirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Shunga o'xshash tarzda, UNIDO (2025) va ITC (2025) hisobotlarida barqaror qiymat zanjirlarini shakllantirish, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, global bozorlarga integratsiyalashuv masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, logistika konsepsiyasiga asoslangan boshqaruv yondashuvlari Gorinovaning (2021) ilmiy ishida chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda tekstil korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, ta'minot zanjiri integratsiyasi va boshqaruvning zamonaviy modellari ishlab chiqilgan. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi hisobotlarida esa sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, investitsiya loyihalari va eksport hajmining oshishi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotda O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sektorining hozirgi holati, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Unda xomashyoni chuqur qayta ishlash,

yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tikuvchilik sanoati boshqaruvida raqamlashtirish eng avvalo ta'minot va ishlab chiqarish strategiyalarini bog'lovchi omil sifatida qaralmoqda. Tikuvchilik sanoatida raqamlashtirish alohida strategik blok sifatida ajratilib, uning tarkibiga bozorni raqamlashtirish, assortimentni rejalashtirish, logistika funksiyasi, prediktiv texnik xizmat va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish kiritilgan. Shu tadqiqotdagi sezgirlik tahliliga ko'ra, raqamlashtirish darajasining 5 foizga oshirilishi ta'minot bazasini optimallashtirishda 14,13 foizlik, xarid integratsiyasida 11,86 foizlik, ichki va tashqi muvofiqlashtirishda 11,20 foizlik, yetkazib beruvchi salohiyatini audit qilishda 10,26 foizlik o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan. Bu natija raqamlashtirishning ta'minot zanjiriga multiplikativ ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Kichik va o'rta kiyim-kechak korxonalari bo'yicha tadqiqot natijalarida byudjetlashtirish tizimlari eng ko'p qo'llanadigan boshqaruv hisobi amaliyoti, strategik boshqaruv hisobi va natijadorlikni o'lchash vositalari esa eng kam foydalaniladigan usullar sifatida baholangan. Tadqiqotda boshqaruv hisobi amaliyotlarini joriy etishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, zamonaviy usullarning murakkabligi, foydaning tez namoyon bo'lmasligi va arzon hisob xizmatlari haqidagi ma'lumot yetishmasligi ko'rsatilgan.

Xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha 2025 yilgi tikuvchilik korxonasi samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy yo'qotishlar sifatida chiqindilar, bekor turishlar, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi va xomashyo narxlari tebranishi qayd etilgan. Demak, raqamlashtirish faqat hisob-kitobni tezlashtirish emas, balki yo'qotishlarni aniqlash va resurslardan foydalanishni real vaqtga yaqin rejimda boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida jami sanoat ishlab chiqarishida tikuvchilik sanoatining ulushi

Ko'rsatkichlar	2025		2026 yil (yanvar-mart)	
	1101100 Mlrd. so'm	100 Jamidagi ulushi foizda	124 852,4 mlrd so'm	100 Jamidagi ulushi foizda
Jami sanoat ishlab chiqarishi Jumladan:				
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	241140,9	21,9	12734,94	10,2
Kiyim ishlab chiqarish	128828,7	11,7	7740,85	6,2

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2025–2026-yillar davomida mamlakat sanoatining umumiy hajmi sezilarli darajada ortgan. 2025-yilda jami 110110 mlrd so'mni tashkil etgan sanoat mahsulotlari hajmi 2026-yil 1- aprel holatiga kelib 124 852,4 mlrd so'mga yetgan. Ushbu davr uchun o'sish sur'ati qariyb 88,2 foizga teng. O'zbekistonda ishlab chiqarish hajmining keskin va barqaror ko'tarilayotganini namoyish etadi. Yengil sanoat tarkibida ayniqsa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish yo'nalishlari izchil o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2025-yildagi 241140,9 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2026-yilda 1- apreliga 12734,94 mlrd so'mga yetib, taxminan 5,3 foizga oshgan. Xuddi shu davrda kiyim tikish sohasi ham salmoqli o'sish qayd etdi: 128828,7 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2026-yilda 1- apreliga 7740,85 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6 % ni tashkil etdi. Bunday ko'rsatkichlar yengil sanoatning nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham o'sib borayotganini ko'rsatadi. Kiyim ishlab chiqarishning ulushi ham 11,7 foizdan 14,5 foizga ko'tarilgan. Ya'ni, yengil sanoatning sanoat tizimidagi nisbiy og'irligi ortib, boshqa sanoat tarmoqlari orasida yanada muhim o'rin egallay boshlagan. 2025 yilning yanvar-dekabr oylarida

respublika korxonalaridan 1101,1 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 6,8 foizga oshgan. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar – 3,7 mingta (6,2 %), kiyim ishlab chiqarish korxonalarini – 6,0 mingta (10,0 %)ga yetdi.

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, respublikada 61,0 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Umumiy sanoat korxonalarining 6,2 mingtasi ya'ni 10,1 % ni kiyim ishlab chiqarish korxonalarini va 3,7 mingtasini ya'ni 6,1 % ni to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushiga to'g'ri keladi<sup>1</sup>.

Tikuvchilik korxonalarini boshqarishda logistika va oqimlar birligi konsepsiyasini ilgari suradi. Tikuvchilik korxonalarini boshqarish: logistik konsepsiya nomli yirik tadqiqotda korxonalar moddiy, energetik, moliyaviy va axborot oqimlarining bir vaqtning o'zida iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida ko'riladi. Unda boshqaruv samaradorligi barcha ishtirokchilarning harakatlarini moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bo'yicha muvofiqlashtirish orqali ta'minlanishi ta'kidlangan. Shu bois raqamlashtirish, eng avvalo, ushbu oqimlarning uzluksiz va muvofiqlashtirilgan ko'rinishini yaratishi kerak.

Energiya menejmenti yo'nalishidagi tadqiqotlar ham mazkur qarashni qo'llab-quvvatlaydi. Elektr energiyasi iste'molini boshqarish bo'yicha tikuvchilik korxonasi uchun energiya iste'molini normativ asosda avtomatik hisoblaydigan dasturiy ta'minot, uskunalar va hisob priborlari bo'yicha ma'lumotlar bazasi hamda boshqaruv algoritmi ishlab chiqilgani qayd etilgan. Bu esa raqamli boshqaruv tizimida energiya moduli alohida emas, balki ishlab chiqarish unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan dinamik boshqaruv elementi bo'lishi lozimligini ko'rsatadi.

Tikuvchilik korxonalarida raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning integrallashgan modeli olti asosiy bosqichdan iborat deb hisoblash mumkin.

Birinchi bosqich bozor va assortimentni raqamli boshqarishdan iborat. Raqamlashtirishni bozorni raqamli kuzatish, assortimentni rejalashtirish va logistika funksiyasi bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib, korxonada buyurtmalar tarixi, mijozlar segmenti, mavsumiy talab, assortiment aylanishi va ishlab chiqarish quvvatlari o'rtasidagi bog'liqlik raqamli ko'rinishda shakllantirilishi zarur. Bu boshqaruv qarorlarini intuitiv emas, analitik asosda qabul qilishga olib keladi.

Ikkinchi bosqich boshqaruv hisobi va xarajatlar analitikasi hisoblanadi. Bu holat korxonalar raqamli platformasiga xarajat markazlari, mahsulot kesimidagi rentabellik, buyurtma bo'yicha marja, reja-fakt tahlili va boshqaruv panelini integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Aks holda raqamlashtirish faqat ma'lumot yig'ish bilan cheklanib, boshqaruv samaradorligiga yetarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Uchinchi bosqich ishlab chiqarish jarayoni va texnik xizmatni raqamlashtirishdir. Buyuk Britaniya tadqiqotida prediktiv texnik xizmat va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish raqamlashtirishning muhim bloklari sifatida keltirilgan. Xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqotda esa ishlab chiqarishdagi chiqindilar, bekor turishlar va resurslar noto'g'ri taqsimoti samarasizlikning asosiy manbalari ekanligi ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqib, uskunalar yuklanishi, nosozlik chastotasi, to'xtash vaqti, brak ulushi va ishlab chiqarish ritmini raqamli kuzatish boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi.

To'rtinchi bosqich ta'minot zanjiri va logistika sinxronlashuvidir. Sezgirlik tahlili natijalari raqamlashtirishning ta'minot bazasini optimallashtirish va xarid integratsiyasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Logistik konsepsiyaga oid tadqiqotlarda esa samarali boshqaruv moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini muvofiqlashtirishga tayanishi ta'kidlangan. Demak, xomashyo xaridi, yetkazib berish muddati, ombor qoldig'i, ishlab chiqarish rejasi va jo'natma jadvalini yagona raqamli oqim sifatida boshqarish zarur.

Beshinchi bosqich energiya menejmentidir. Tikuvchilik korxonalarida elektr energiyasi xarajatlari umumiy tannarxning sezilarli qismini tashkil etadi. Energiya iste'molini boshqarish

<sup>1</sup> O'zbekistonda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi. - Elektron ma'lumot. - 2015-2024 yillar ko'rsatkichlari.

bo'yicha ishlab chiqilgan modelda normativ iste'mol uskunalari unumdorligiga qarab avtomatik hisoblanishi, dasturiy interfeys va ma'lumotlar bazasi esa real nazoratni ta'minlashi ko'rsatilgan. Shu asosda energiya sarfini ishlab chiqarish hajmi va texnologik rejimlar bilan bog'lab kuzatish korxonasi ichidagi resurs samarasizligini aniq ko'rsatib beradi.

Oltinchi bosqich mahsulotning raqamli kuzatuvchanligi va barqarorlikni boshqarishdir. Bu yondashuv kelajakda tikuvchilik korxonalarini uchun nafaqat ekologik, balki boshqaruv samaradorligi nuqtai nazaridan ham muhimdir, chunki u qayta ishlash, sifat nazorati, qaytgan mahsulotlar va mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qarorlarni ancha aniq qiladi.

Ushbu bosqichlarni O'zbekiston tikuvchilik sanoati dinamikasi bilan bog'lab qaralganda, raqamlashtirishning iqtisodiy zarurati yanada ravshan bo'ladi. Ishlab chiqarish hajmining tez sur'atlarda oshishi korxonasi ichidagi axborot oqimlari, xarajat nazorati, ta'minot va ishlab chiqarish muvofiqligi, uskunalari yuklanishi hamda energiya sarfi ustidan an'anaviy usullar bilan samarali nazoratni murakkablashtiradi. Shuning uchun raqamlashtirish bu yerda modernizatsiyaning qo'shimcha unsuri emas, balki o'sayotgan tarmoqni boshqarishning zaruriy institutsional sharti hisoblanadi.

## 2-jadval

### O'zbekistonda tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Yil	Tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, %	2020-yilga nisbatan hajm, marta
2020	13 241,7	110,5	1,00
2021	36 713,9	117,4	2,77
2022	52 372,3	119,5	3,96
2023	62 850,7	109,9	4,75
2024	71 509,8	106,4	5,40
2025	89 489,0	111,2	6,76

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2024-2025-yillarda tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 13 241,7 mlrd so'mdan 89 489,0 mlrd so'mga yetib, qariyb 6,76 martaga oshgan. Shu bilan birga, fizik hajm indeksining butun davr davomida 100 foizdan yuqori saqlanib qolishi o'sishning faqat narx omili hisobiga emas, balki real ishlab chiqarish kengayishi hisobiga ham yuz berayotganini anglatadi. Ayniqsa, 2021-yilda 117,4 foiz, 2022-yilda 119,5 foiz va 2025-yilda 111,2 foizlik ko'rsatkichlar tarmoqda ishlab chiqarish miqyosi, buyurtmalar hajmi, xomashyo oqimi, assortiment murakkabligi va logistika yuklamasi muntazam oshib borayotganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda boshqaruvning an'anaviy, parchalangan va qo'lda yuritiladigan usullari korxonasi ichidagi axborot oqimlarini to'liq qamrab ololmaydi. Demak, makrodarajadagi o'sishning o'ziyoq raqamlashtirishni texnologik moda emas, balki boshqaruvning institutsional zarurati sifatida ko'rsatadi.

Tarmoqning real va barqaror o'sishi tikuvchilik korxonalarida talabni prognozlash, ishlab chiqarish quvvatini yuklash, zaxiralarni boshqarish, energiya iste'molini nazorat qilish va xarajatlarni tahlil qilishni yagona raqamli axborot maydonida olib borishni talab qiladi.

3-jadvaldagi 2020–2025-yillarga oid ko'rsatkichlar O'zbekiston yengil sanoati, ayniqsa to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmoqlarining sezilarli o'sish va tarkibiy yangilanish bosqichiga kirganini isbotlaydi. Bu esa sanoatning keyingi yillardagi rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ishonchli empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi tikuv-to'qimachilik sanoatining 2020–2025-yillarda bosib o'tgan rivojlanish yo'li, uning ichki bozor va tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuvi, hududlar bo'yicha tarkibiy o'zgarishlar hamda aholi iste'mol imkoniyatlaridagi sifat o'zgarishlarini chuqur yoritib beradi.

## 3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi tikuv kiyimlari bozori va uning rivojlanish xususiyatlari**

Ko'rsatkichlar	Yillar	O'z. Res	Farg'ona vil	Namangan vil	Andijon vil
Tikuv kiyimlari ishlab chiqarish (mlrd so'm)	2020	97 598,2	1 768,7	578,6	1 359,6
	2025	880 198,5	11 979,3	7206,4	9 026,8
Tikuv kiyimlari chakana savdosi (mlrd so'm)	2020	92 718,3	1 680,3	549,7	1 291,6
	2025	836 188,6	11 380,3	6 846,1	8 575,5
Eksport (mlrd so'm)	2020	14 639,7	265,3	86,8	203,9
	2025	132 029,8	1 796,9	1 081,0	1 354,0
Import (mlrd so'm)	2020	9 759,8	176,9	57,9	136,0
	2025	88 019,8	1 197,9	720,6	902,7
holi jon boshiga tikuv kiyimlar chakana savdosi (ming so'm)	2020	3118,3	2063,3	1109,7	3 379,0
	2025	23679,4	11,185,8	10228,2	26 439,6

Bu davrga xos eng asosiy tendensiya - tikuv kiyimlari ishlab chiqarishning o'ta yuqori sur'atlarda kengayganligidir. Respublika bo'yicha ishlab chiqarish hajmining qariyb o'n baravarga ko'payishi yengil sanoatning so'nggi yillarda iqtisodiyotdagi strategik tarmoqlardan biriga aylanganligini ko'rsatadi. Bu jarayon Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida ham sezilarli ko'lamda namoyon bo'lgan bo'lib, ayniqsa Namangan viloyati tikuv sanoatida yetakchi hududga aylangan<sup>2</sup>.

Shu sababli raqamlashtirish faqat dastur sotib olish emas, balki boshqaruv hisobi, ichki nazorat, KPI va qaror qabul qilish tizimlarini birlashtirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Tikuvchilik korxonasi raqamli transformatsiyaning ustuvor ketma-ketligi quyidagicha bo'lishi kerak: avvalo ta'minot va assortimentni boshqarish, keyin ishlab chiqarish va texnik xizmat, undan so'ng energiya hamda ichki nazorat bloklarini integratsiyalash. Aynan shu yondashuv boshqaruv samaradorligini eng tez va eng barqaror oshiruvchi model hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday ilmiy natijaga kelish mumkin: tikuvchilik korxonalarida boshqaruv samaradorligi raqamlashtirish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik ayniqsa ta'minot zanjiri, xarid integratsiyasi, assortimentni rejalashtirish, energiya boshqaruvi, zaxira nazorati va ichki nazorat tizimlarida kuchli namoyon bo'ladi. O'zbekiston tikuvchilik tarmog'ining tez sur'atlarda kengayib borayotgani, Indorama guruhida marja va zaxira bilan bog'liq bosimlar kuzatilayotgani, hamda ilmiy tadqiqotlarda raqamlashtirishning boshqaruv ko'rsatkichlariga sezilarli ta'siri aniqlangani ushbu mavzuning dolzarbligini to'liq tasdiqlaydi. Shu bois, tikuvchilik korxonalarini raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish bugungi kunda nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va institutsional zarurat sifatida baholanishi lozim<sup>3</sup>.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tikuvchilik korxonalarida raqamlashtirishning ta'siri ikki bosqichda namoyon bo'ladi. Birinchi bosqichda u operatsion samara beradi: ishlab chiqarish ritmi yaxshilanadi, yo'qotishlar kamayadi, ta'minot bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi nomuvofiqlik qisqaradi, energiya sarfi nazoratga olinadi. Ikkinchi bosqichda esa raqamlashtirish strategik samara beradi: mahsulot portfeli bo'yicha qarorlar asoslanadi, yetkazib beruvchilar bilan ishlash sifati oshadi, barqarorlik va kuzatuvchanlik kuchayadi, boshqaruv hisobi analitik darajaga ko'tariladi. Bu jihat ayniqsa raqamlashtirishning 5 foizlik o'sishi boshqa boshqaruv mezonlarida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqargan Buyuk Britaniya tajribasi bilan tasdiqlanadi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish avtomatik ravishda samaradorlikka olib kelmaydi. O'zbekiston korxonalarida raqamli platformalar joriy etilganda, ularni boshqaruv hisobi,

<sup>2</sup> "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi yillik hisobotlari, 2023–2024. O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. - Elektron ma'lumot. - 2015-2024 yillar ko'rsatkichlari.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. "Sanoat ishlab chiqarish natijalari, 2020–2026-yillar".

byudjetlashtirish, KPI va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari bilan bog'lash zarur; aks holda korxonalar ko'p ma'lumot to'playdi, biroq kam tahlil qiladi.

Kelgusida tikuvchilik korxonalarini raqamlashtirish yanada kengroq mazmun kasb etadi. Yevropa tajribasida raqamli mahsulot pasporti, qayta ishlangan tolani kuzatish va butun zanjir bo'ylab axborotning izchilligi ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Demak, boshqaruv samaradorligi endilikda faqat "necha dona ishlab chiqarildi" yoki "qancha sotildi" bilan emas, balki "mahsulot tarixi qanchalik aniq kuzatildi", "xomashyo va chiqindi oqimi qanchalik boshqarildi" kabi mezonlar bilan ham baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, tikuvchilik korxonalarida raqamlashtirish innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishning markaziy omiliga aylanmogda. O'rganilgan manbalar raqamlashtirishni ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bilan cheklash noto'g'ri ekanini, u bozor, assortiment, xarajat, ta'minot, logistika, energiya va barqarorlikni yagona boshqaruv konturida birlashtirishi lozimligini ko'rsatdi. O'zbekiston tikuvchilik tarmog'ida ishlab chiqarish hajmlarining jadal o'sishi aynan shunday integrallashgan boshqaruv modeliga ehtiyojni kuchaytirmogda.

Birinchi taklif shundan iboratki, tikuvchilik korxonalarida bozor buyurtmalari, assortiment rejaları, ishlab chiqarish yuklanishi va jo'natmalarni birlashtiruvchi yagona raqamli boshqaruv konturi shakllantirilishi zarur.

Ikkinchi taklif sifatida boshqaruv hisobi tizimi raqamlashtirishning ajralmas qismiga aylantirilib, byudjet, marja, reja-fakt va mahsulot rentabelligi ko'rsatkichlari raqamli panelda muntazam kuzatilishi kerak.

Uchinchi taklif sifatida uskunalar holati, bekor turishlar va energiya sarfi bo'yicha real vaqtga yaqin monitoring joriy etilishi, bu ma'lumotlar prediktiv texnik xizmat va tannarx tahlili bilan bog'lanishi lozim.

To'rtinchi taklif ta'minot zanjiri va logistika jarayonlarini raqamli muvofiqlashtirishga qaratiladi. Yetkazib beruvchi salohiyati, xomashyo oqimi, ombor qoldig'i va buyurtmalar ijrosi bo'yicha uzluksiz axborot almashuvi korxonalar samaradorligini oshiradi.

Beshinchi taklif sifatida mahsulotning raqamli pasporti, QR yoki RFID asosidagi kuzatuvchanlik tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu choralar nafaqat ichki boshqaruvni, balki eksport talablari, sifat nazorati va barqaror rivojlanish mezonlarini ham mustahkamlaydi (Xolmatov, 2023).

#### **Adabiyotlar / Литература / Reference:**

Gorinova S.V. (2021) *Мировая экономика и международные экономические отношения*. Москва: Юрайт.

Hakimov Z.A. (2016) *Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish omillari*. Toshkent "Iqtisod-moliya".

*imkoniyatlari*", TDIU jurnali, №3.

International Trade Centre (2025) *Trade and Market Development Reports*. Geneva: ITC. Available at: [International Trade Centre Official Website](https://www.iti.centre.org/).

Shukurova, Iroda Alisher qizi (2024) 'Zamonaviy korxonalarda innovatsion strategiyaning o'rni va ahamiyati', *Yangi O'zbekiston: fan, ta'lim va innovatsiyalar*, pp. 703–704. Available at: [Inlibrary.uz](https://inlibrary.uz).

United Nations Industrial Development Organization (2025) *Industrial Development Report 2026*. Vienna: UNIDO. Available at: [UNIDO Industrial Development Reports](https://www.unido.org/).

Xolmatov, A. (2023). "Tikuv sanoatida innovatsion yondashuvlar va eksport imkoniyatlari", TDIU jurnali, №3.